XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 3 - noyabr VI-60-102-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1, 2 va 3-chorak yakunlari bilan yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan hosil bo‘lgan mablag‘lari hisobidan tuman hokimligining “Oziq-ovqat zaxira jamg‘armasi”ga mablag‘ ajratish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1, 2 va 3-chorak yakunlari bilan yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan hosil bo‘lgan mablag‘lari hisobidan tuman hokimligining “Oziq-ovqat zaxira jamg‘armasi”ga mablag‘ yo‘naltirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2023 yil 31 oktabrdagi 02-115-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarovga tuman mahalliy budjetining 2023 yil 1, 2 va 3-chorak yakunlari bilan yer uchastkalariga bo‘lgan xuquqlarni sotishdan hosil bo‘lgan mablag‘lari hisobidan 55 000 000 (ellik besh million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligining “Oziq-ovqat zaxira jamg‘armasi” hisob raqamiga ajratish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi S.Abduazimovga “Oziq-ovqat zaxira jamg‘armasi” xisob raqamiga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Do‘stnazarov), ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.b J.Adilov zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi **O'Raxmanov**